# MAVZU

Yashasang dunyoda yorug' yuz bilan

Virtual olam

Nima yaxshi-yu Nima yomon?



# YASHASANG DUNYODA YORUG` YUZ BILAN

Yashasang dunyoda yorug' yuz bilan, Hurmat ko'rguzsang va bo'lsa izzating!

Ketsang, eslasalar shirin so'z bilan, Yaxshi noming qolsa, qolsa xizmating.

G'anim nafratingga kelolmasa bas, Kulsang, sidqidildan yayrab kulolsang.

Dilda g'ashlik bo'lmay yashasang, xullas, Baxtli odamlarday baxtli bo'lolsang.



# QO`SHIMCHA

Inson hayotda qanday yashasa, uning yuzi ham shunday bo'ladi. "Yashasang dunyoda yorug' yuz bilan" degan gap bejiz aytilmagan. Bu ibora insonning halol, pokiza va yaxshilik yo'lida yashashini anglatadi. Yorug' yuz bilan yashash – bu odamlar oldida ham, o'zing oldingda ham uyalmay yashash demakdirYorug' yuz bilan yashaydigan inson hech kimga yomonlik qilmaydi, birovning haqqiga xiyonat qilmaydi. U ota-onasini hurmat qiladi, kattalarga ehtirom, kichiklarga mehr ko'rsatadi. Bunday odam ko'ngli pok bo'lgani uchun odamlar orasida obro' topadi. Chunki halollik va samimiyat har qanday insonni go'zallashtiradi.

# VIRTUAL OLAM NIMA??

Virtual olam — bu internet orqali yaratilgan sun'iy muhit bo'lib, unda odamlar muloqot qiladi, o'qiydi, ishlaydi, o'ynaydi va ma'lumot oladi. U kompyuter, telefon va boshqa texnologik qurilmalar yordamida ishlaydi.

# VIRTUAL OLAM

Hozirda dunyoda taxminan 67.9 % odam internet foydalanuvchisi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar esa butun aholi orasida ≈ 63.9 % atrofida. Taxminan 41% odam onlayn o'yin o'ynaydi.



# NIMA YAXSHI-YU NIMA YOMON???

Hayotda har bir inson doimo tanlov oldida bo'ladi: nima yaxshi, nima yomon. Bu savolga javob topish insonning tarbiyasi, vijdoni va tafakkuriga bog'liq. Yaxshilik – odamlarni baxtli qiladigan, yomonlik esa harmusela zarar keltiradigan amallardir.

## NEGA YAXSHILIK MUHIM?

Yaxshilik insonni hurmatli qiladi. Odamlar yaxshi odamni sevadi. Toza vijdon esa eng katta boylik hisoblanadi.

# MUTOLAA: ZAXIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR "YAXSHILIG´" RADIFLI G´AZALI

# Yaxshilig'

Kim ko‘rubdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘, Kimki, ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshilig‘. Gar zamonni nayf qilsam ayb qilma, ey rafiq, Ko‘rmadim hargiz, netoyin, bu zamondin yaxshilig‘! Dilrabolardin yomonliq keldi mahzun ko‘ngluma, Kelmadi jonimg'a hech oromi jondin yaxshilig'. Ey ko‘ngul, chun yaxshidin ko‘rdung yamonliq asru ko‘p, Emdi ko‘z tutmoq ne ma’ni har yamondin yaxshilig'? Bori elga yaxshilig' qilg'ilki, mundin yaxshi yo‘q Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig! Yaxshilig' ahli jahonda istama Bobur kibi, Kim ko‘rubdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig'?





# E`TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT